

UMUMTURKIY ADABIY ME'ROSLARIMIZDAN BIRI "JUMJUMA SULTON" DOSTONI POETIKASI

Sulaymanov Zaxiriddin Ural o'g'li,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
katta o'qituvchisi,
E-mail: sulaymonovzaxiriddin@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Oltin O'rda o'zbek adabiyotida XIV asrda yaratilgan badiiy adabiyot namunalari biri hisoblanmish "Jumjuma sulton" dostoni haqida ma'lumot berilgan. Asarga jahon adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan baho berildi. Dostonning qisqacha o'rganilish tarixi, asosiy mazmuni, bosh g'oyasi aniqlandi. Shuningdek, "Jumjuma sulton" asarining nusxalari hamda kompozitsion tuzilishi tahliliy yoritildi.

Kalit so'zlar: *agiografik asarlar, doston, masnaviy, kompozitsiya, diniy-didaktik, syujet, Iso (alayhissalom), Jumjuma sulton.*

Annotation. The article provides information about the epic "Jumjuma Sultan," which is considered one of the examples of artistic literature in the Uzbek literature of the Golden Horde in the 14th century. The work is evaluated from the perspective of world literary studies. The brief history of the study of the epic, its main content, and its central idea are identified. In addition, the manuscript copies of "Jumjuma Sultan" and its compositional structure are analytically examined.

Key Words: *Hagiographic works, epic, masnavi, composition, religious-didactic, plot, Jesus (peace be upon him), Jumjuma Sultan.*

Аннотация. В статье представлена информация о дастане «Джумджума султан», который является одним из образцов художественной литературы узбекской литературы Золотой Орды XIV века. Произведению дана оценка с точки зрения мирового литературоведения. Определены краткая история изучения дастана, его основное содержание и главная идея. Также проанализированы рукописные варианты произведения «Джумджума султан» и его композиционная структура.

Ключевые слова. *Агиографические произведения, Эпос, Маснави, Композиция, Религиозно-дидактический, Сюжет, Иса (мир ему), Джумджума султан.*

Kirish. XIII-XIV asrlarga kelib turkiy xalqlar adabiyotida mehnatkash xalqning fikrini quruq va'zxonlikdan ko'ra diniy-afsonaviy voqealarni badiiy asarlarga kiritish kuchaya boshladi. Bu davrda turk diyorida islom dini kengayishda davom etdi. Shu bilan birgalikda xalq og'zaki ijodidan oziqlangan holda asarlar yozish hamda boshqa tillar adabiyotidan erkin tarjima qilish orqali asarlar yaratish rivojlana boshladi. Bundan asosiy maqsad nafaqat oddiy aholi balki davr hukmdorlarini adolatli, xalq manfaatlarini o'ylaydigan sulton qilib tarbiyalash hisoblangan.

Bu davrdagi agiografik asarlardan biri 1368-yilda Oltin O'rda hududida yozilgan Hisom Kotibning "Jumjuma sulton" asari hisoblanadi. Asarning bosh g'oyasi sifatida hukmdorlarni adolatli bo'lishga chaqirish, saxiy va rahm-shafqatli bo'lishga undash kabi fikrlar gavdalanadi.

Adabiyotlar sharhi. Ayrim ilmiy doiralarda asar Farididdin Attorning "Jumjumanoma" asariga taqlid qilib yozilgan, degan qarashlar ham mavjud [Абилов,

1984: 231-246]. Shu sababli “Jumjumanoma” nomi bilan ham yuritiladi. Bu fikrni inkor qiluvchi olimlar ham talaygina. Masalan, tatar olimi Ramil Islamov maqolasida ikki asarning bir-biridan farqli xususiyatlarini ko‘rsatib bergan [Исламов, 2014: 65-70]. Asar matnining kompozitsion tuzilishini uch qismga ajratish mumkin: 1) boshlanish 2) asosiy qism 3) xulosa. Asarda Odam, Nuh, Xalil, Sufyan, Jamshid, Xusrav, Horun, Namrud, Faridun, Rustam, Asfandiyor, Nushirvon, Mahmud G‘aznaviy, Chingizxon kabi tarixiy shaxslar bilan bog‘liq hikoyatlar mavjud. Asar tatar adabiyotida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. “Hozirgi vaqtda muzeylarda asarning 26 nusxasi saqlanayotganligi ma‘lum. Shularning 18 tasi – Qozon shahar muzeylarida, Boshqurdiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix, til va adabiyot instituti arxivida – uch qo‘lyozma, Sharqshunoslik institutining Sank-Peterburg filiali fondida – uch nusxada, Parij milliy kutubxonasida asarning bir ko‘chirmasi saqlanadi” [Нуриева, 2011: 77-80]. Nusxalarining ko‘pligi shuni bildiradiki, o‘z davrida asar xalq orasida juda mashxur bo‘lgan va sevib o‘qilgan.

“Jumjuma sulton” asarining muallifi nomi turli nusxalarda turlicha “Hisom Kotib”, “Husam Kotib”, “Hussam Kotib” ayrimlarida “Kotib” shaklida uchraydi. Mehmed Fuat Ko‘prulu “Husam Kotib” nomini boshqalariga nisbatan aniqroq deb ma‘lumot beradi [Ko‘prulu, 2014: 307].

Asar chig‘atoy tilida aruz vaznida yozilgan va quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Ey jahon boqidur teganlar qani,

Eshiting dunyo ishin biling ani.

Chun bu olam oqibat yo‘q bo‘lisar,

Mundag‘ilar hech boqi qolmayisar. [H.Kotib, 2021: 89]

Demak, asar masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib romali musaddasi mahzuf (foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan. Qofiyalanishi aa, bb (qani, ani) shaklda.

Asarning qisqacha mazmuni: “Jumjuma Sulton” dunyoning boqiy emasligi, yaxshimi, yomonmi barcha mahluqotlar, nabiyalar va shohlar bir kun kelib bu dunyodan o‘tishi haqida fikr yuritiladi hamda ularni birin ketin sanab chiqadi.

Qani avval Odam-u Nuh ham Halil

Boqi qolmas oqibat illa Jalil. [H.Kotib, 2021: 90]

Ma‘nosi: Avvalo Odam alayhissalom, Nuh hamda Ibrohim Halilulloh ham bu dunyoda boqiy qolmaydi, Ollohda boshqa. Baytlar shu tarzda “qani” kalimasi bilan boshlanib davom etadi. Shafvon, Jamshid, Xusrav, Shirin, Zul-qarnayn, Od, Daqyonus, Namrud, Faridun, Rustam, Nushiravon, Mahmud G‘aznaviy, Ibrohim Adham, Chingizxon, Hulog, Malik Buhtu‘n-Nashr kabi jahon podsholarini sanab o‘tadi, har birining o‘ziga xos ta‘rifini bir so‘z orqali berib o‘tadi. Bu esa yozuvchining nechog‘li bilimdon ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Oxirida har birisi bu jahonni tutdilar, so‘nggiga qarasang tanlari o‘z qoniga bulg‘anib, bir pora bo‘zga chulg‘anib yotganligini aytib o‘tadi va inson yaxshilik qilish kerakligini, bu dunyodan o‘tgandan so‘ng sulton kim, qul kim,

amir kim, xo‘ja kim, boy kim, faqr kim farqlab bo‘lmasligini ta’kidlab o‘tadi va shu bilan kirish qism yakunlanadi.

Asosiy qism quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Tingla emdi bu so‘zimga bir masal,

Bu masal kim bog‘dagi bitgan asal.

Iso payg‘ambar musofirlik qila,

Kezar erdi Shom elindin bir ela. [H.Kotib, 2021: 94]

Suvlar oqqan, qushlar uchgan bir go‘zal joyga borib qoladi, suv yoqasida o‘tirganida bir odam boshini ko‘rib qoladi va tafakkur qilib boshlaydi. “Kimsan ey bosh, nima uchun bu yerda yotibsan?” – deb savol beradi va bu boshning tilidan ahvolini bayon qilishini Ollohga iltijo qilib so‘raydi, Olloh taolo Jabroil alayhissalomga Isoning hojatini bajo keltirishni buyuradi. Keyin:

Iso aydi ey qurug‘ odam boshi,

Ermu erding dunyoda sen yo tishi, – deb boshlangan bir qancha savol bilan boshga murojat qildi. Bosh Haqning qudrati bilan holini bayon aylaydi:

Dunyoda men bir malik erdim ulug‘,

Mulkatim ma‘mur erdi ne‘matim to‘lug‘.

Jumjuma Sulton erdi atim menim,

Olamga chiqmish erdi dodim menim. [H.Kotib, 2021: 99]

Shu tarzda o‘zining mu‘azzam shahri haqida uning naqadar buyukligini jannatga o‘xshatib tasvirlaydi va unda qirq ming vaziri, o‘n sakkiz ming mu‘tabar beklari, ov uchun o‘n ming qullari, o‘n ming chashnagar qullari, yana o‘n ming soqi qullari, o‘n ming podsholarning qizlaridan bo‘lgan juftlari, yana o‘n ming har biri hurga o‘xshash qirnaqi, yetti ming mutribchilari – har mingtasi bir cholg‘u asbobini (qobuz, nay, tabl, cholg‘u, daf, jimbali, kaf) chaluvchilari, yana yuz ming joriyasi, tunganmas boyligi bor edi. Shundan so‘ng Jumjuma sultonning mathiga o‘tiladi va bir yaxshi odati bor ekanligi qachon miskin va g‘arib kelsa ehson qilishi, osh-non berishi bayon qilinadi.

Kunda sonsiz xalq oshim oshar edi,

Ancha ming hayvon o‘lup bishar edi.

Ming ot, ming teva, ming sigir, o‘n ming qo‘y,

O‘zga ne‘mat qush qurtlarni aytma qo‘y. [H.Kotib, 2021: 105]

Shu tarzda o‘lim kelgunga qadar yashagan edi, shu bilan sulton so‘zini tugatadi.

Iso so‘rdi yana ul boshdin savol,

Kim yana so‘zlagil ey sohib-zilol.

Jon ne turlug‘ berding ani so‘zlagil,

Gurda ne ko‘rding hikoyat aylagil. [H.Kotib, 2021: 106]

Qanday vafot etding, ko‘rgan bo‘lsang jannat va do‘zaxning sifatlarini aytgin, dunyo so‘zlarini qo‘yib oxirat haqida gapirgin deydi Iso alayhissalom. Shundan so‘ng yana Jumjuma sulton savollarga javob berib boshlaydi: Bir kuni taxtimda majlis qurib

o'tirgan edim nogahon bir zavjamga ko'zim tushib aysh qilmoqchi bo'lganimda bir faqir kelib ehson tilab qoldi. Shunda ehsonning vaqti emasligini xodimiga aytadi, xodim ham borib miskinga qattiq so'zlaydi. Ul miskinning ko'ngli buzilib ketadi, keyin qidirsam ham topa olmaydi. Shundan keyin yuvinmoq uchun hammomga borib toyib yiqiladi. (Kasal bo'lishining sababi asarning turli nusxalarida har xil berilgan) Qullari ko'tarib saroyiga olib boradi, bir kun yolg'iz yotadi. Ertasi kuni vazirlari, beklari qarab turli dorilar qilishadi, qullari ozod qilishadi, lekin foydasi bo'lmaydi. Yetti kunda tanasida majoli qolmaydi. Shunda ko'ziga bir sahro ko'rinadi. Oldidan olti yuzli, ko'zi qonga to'lgan har tominida qanoti bor, bir qo'lida changal, birida qadah bor Azroil chiqadi. Shunda unga qo'rqib savol beradi: "Nima uchun olti yuzing bor?". Javob berdi: yuqoridagi yuzimni ochsam farishtalar jon beradi. O'ng yuzim mashriq, so'l yuzim mag'rib ahli, avvalgi yuzim fahri jahon habibi Mustafo ummatlariga ochilsa jon beradi. Yana Jumjuma sulton savol beradi: "Qo'lingdagi qadah va changal nima uchun?". Javob berdi: "Changal qudrat ramzi, qadah ichki ruhiy tayyorgarlik, shodlik ramzi".

Shundan so'ng Jumjuma sulton so'zini davom ettirdi: "Bir zamon uyg'onsam yotibman bir bo'zga o'ralib, tanim tuproqqa bulg'anib". Uyg'onganida uning oldida na moli, na joni hech narsasi bo'lmaydi. Shunda oldiga ikkita haybatli farishta kirib keladi. Ularga qo'rib "kimsiz?" – deya savol beradi. Bizlar Kiroman va Kotibin deb javob beradi hamda kafanida bir parcha olib uning qilgan ishlarini yozib ketishadi. Ulardan so'ng biri ko'k, biri qora rangdagi Od-i Samud kirib kelib qattiq qo'rqitib savol beradi:

Kim turur Tangring ayt ey Majusi tiz,

Yo'qsa yeyursan holi o'tlug' topuz. [H.Kotib, 2021: 119]

Savolga javob bermagani uchun ikkalasi gurzi bilan uradi. Keyin zaboniylar kelib bo'yniga olovli kishan solib do'zaxga olib borib o'tga yotqizadilar. O'tning issig'ligidan ichi yonib suv so'ragan vaqtda og'ziga urib bir qadah zahar ichiradi.

Ani ichdim ersa mag'zim o'ynadi,

Yuragim kesildi, ichim qaynadi.

Qursag'im ko'ydi ichagim suridi

Bir zamondin og'zim quridi. [H.Kotib, 2021: 121]

Qayta-qayta ichirganidan keyin yana yetmish arshun zanjir bilan tortilar. Shu tarzda taniga mingta azob qiladilar. Bularni eshitgan Iso alayhissalom yig'laydi, yana nimalarni ko'rding deya so'raydi. Sulton birma bir javob beradi. Do'zak to'la olovligi va yettita qavatdan iborat ekanligi va har birining nomi borligi aytib sanaydi: birinchi qavati Hoviya, (ikkinchisining nomi yozilmagan) uchinchisniki Xutama (nasroniylar qismati), to'rtinchisniki Lazo (majusiylar boshiga), beshinchisi Sa'ir (yolg'on so'zlovchilar), oltinchisi Jahim (osiylar), yettinchisi Jahannam (Muhammad umatining yeri). Shundan so'ng Jahannamdagi bir bichin yuzlik qavm haqida gapiradi, sababi harom yeganligida. Yana bir boshi to'pan, oyog'i ustun qavm haqida gapirib ular yerda manmanlilik (kibrilik) qildilar shu sababdan shu holga tushdilar. Shu tariqa jazoga uchragan qavmlarni va uning

sabablarini sanashda davom etadi: qorni tog‘day katta hinzirga o‘xshash qavm (el orasiga fitna soluvchilar); ko‘zlari yo‘q tik holda yuruvchi toifa (o‘zining aybini unutib boshqalarning aybini yuziga soluvchilar); tili, oyog‘i va qo‘li yo‘q qavm (tilsizlar egri hukm chiqaruvchi hakimlar, qo‘l va oyoqsizlar qo‘shnilarni ranjitganlar); yana hollari juda yomon toifa – tillari o‘z joyida chiqib ularda qon, iring hech oqib to‘xtamas (o‘z qavlini buzib to‘g‘ri so‘z o‘rniga egri so‘z - bo‘xton aytuvchilar); farishtalar oltin tangani qizdirib yuzlariga bosayotgan toifani ko‘radi (ular dunyoda soni yo‘q juda ko‘p oltin-kumush to‘plab molidan ulush chiqarmagan qavm); yana yemaklari yalinsiz nor bo‘lgan xaloyiq (ular dunyoda ribo ham yetimining molini yer edi); yana so‘z bilan ta‘riflab bo‘lmaydigan qavm haqida aytadi:

Ham taqi bir qavm ayoq uzra turur,

Bir zamon turmas qilich birla urur.

Boshlarini tanlaridan ayirur,

Yana Haq qudratindin bosh bitilur. [H.Kotib, 2021: 131] (ular yo‘lda turub bosh kesib, qon to‘kkan yog‘ilar edi); sochidan osilib yuziga olov purkalgan qavm (necha yil boshqaning tuzini yeb uning haqqini bilmagan kimsalar); yana bir barchadan yomon ahvoldagi xalqni tasvirlaydi:

Barcha mastur erdi anlar yalang‘och,

Ne eginda to‘n bor ne boshinda toj.

Har birining avratindin qon oqar,

Barcha tamug‘ xaloyiq anga boqar.

Tanlarindin yetmish alvon shish chiqip,

Tinmaz erdi qon iring andin oqip. [H.Kotib, 2021: 133-134]. Va ularning kim ekanligini bayon qiladi: ularning har biri bir yurtning egasi, lekin hech biri bir miskinning holidan xabar olmaydi, hech bo‘lmasa yalong‘ochga bir parcha bo‘z yopmaydi, xullas, hech kimga yordam qo‘lin cho‘zmadi. Shu sababdan shunday sazo va jazo berildi. Shu tariqa Iso ul boshning aytganlarini yig‘lab tingladi. Yana u bosh so‘zida davom etdi:

Yana ul bosh aydi andin so‘ng kelip

Qach malo‘ik meni ul yerdin olip

Yuzim uzra surap olip bordilar

Bir ulug‘ vodi ichina qottilar [H.Kotib, 2021: 136].

Ul vodiyning nomi Asfal emish. U joyda bir tobut ichiga kirib o‘tirdi va ko‘ziga uch bo‘lak odam ko‘rindi. Ulardan dunyoda kim bo‘lganligini so‘raydi, har biri sulton bo‘lganliklarini va agar ahvoli bunday bo‘lishini bilganlarida gado bo‘lishga ham rozi ekanliklarini aytadi. Shunda o‘zini tobut ichida chumoli va chayonlar yeb boshlaydi, qachon etini yeb tugatsalar yana yangi et bitar edi. Shu azobda hech kim meni eshitmas edi. Bir zamon “chiqaringlar mehnat ichindan uning joni uqubatlardan qutulsin” – deb farmon keldi. U karamlining kim ekanligini bilmoqchi bo‘lib qaradim. Uning uchun faqir ham, gado ham, boy ham bir edi. Xullas, meni u yerdan oldilar bu dunyoga keltirdilar.

Bu jahondin kechmish men ming yil yashap,

Yana to‘rt ming yil tamug‘da chektim azob.

Emdi yetmish yildir kim munda kelip,

Ushbu yozida yotur men qurtulup. [H.Kotib, 2021: 138]

Shunda Iso yana savol berdi: “Haqdan sizga nabiy yuborilmadimi?”. Bosh javob berdi: Bizning nabi Ilyos edi, lekin hech uning so‘zin olmas edi. Shuning uchun shunday ko‘p uqubatlar ko‘rdik. Yana Iso aytdi: Ey bosh mendan xojating bormi? Bosh aytdi: Qancha vaqtdan beri Tangriga ibodat qilaman, men avf qiladimi? Qo‘l ko‘tarib Iso ey Rahim, yo Sami, yo Mujib, yo Hakim deya ushbu chirigan tanaga Haqdan yana jon kiritishini so‘radi. Haq bu tanaga jon kirgizdi, qayta inson bo‘ldi, ko‘zi ochildi va Isoga avval ushbu so‘zni aytdi:

Og‘oz qildi *la iloha illa lloh* tedi,

Ham nabi sen *Iso Ruhulloh* tedi.

Iso undan so‘ng unga vada qilib o‘z yo‘liga ketdi. U esa o‘z qulligini bildirmoqqa, tirikligi shukrini keltirmoqqa qoldi.

Bir qancha vaqtdan so‘ng Qudus eliga bordi, bir tog‘ teshigiga kirib o‘tirdi. Yana yetmish yil ibodat qildi, Haq unga inoyat qildi. Oqibatda uning joni mo‘min bo‘lib chiqdi, sizlar ham uni rahmat aylangiz. Muhtasar qilib aytganda har kim nimani eksa shuni o‘radi. Jahonga shuncha podshohlar keldi, ulardan faqat yaxshi ot qolishini bilgin deya ushbu misralar bilan tugatadi:

Tangri bergan rizqingning shukrin qil,

Kecha kunduz Adining zikrin qil.

Jumjuma dostonini eshitgil sen,

Kim Misir shahrinda erdi ushbu ten.

Oti danlu o‘zi xosh sulton edi,

Xossa dunyo sultoni bu jon edi.

Kim tarix yetti yuz yetmish edi,

Hisom Kotib muni bitimish edi.

Rahmat etgil barchaga sen ey Rahim,

Qil shahodat ko‘nglina sen mustaqim.

Xatm qilgil yo Iloha‘l – ‘alamin,

Yarliqagil yo Iloha‘l-oxirin.

Garchi qulingdin kelupdur ko‘p xato,

Rahmating daryosini qilgil ato. [H.Kotib, 2021: 144-145]

Yuqorida ma‘lum bo‘lganidek, asarning so‘ngida muallif Jumjuma sulton dostonini Misrda hijriy 770-yilda yozib tugatganligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi va shu bilan asarni yakunlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir boylik va hokimiyatga chanqoq bo‘lgan hamda ularning “barcha boyliklarini, erkin hayotlarini va taxtning ulug‘vorligini

tashlab narigi dunyoga ketishlarini” o‘ylamagan xonlar haqida kinoya bilan gapiradi. Ushbu doston keyingi davr mumtoz adabiyotga yetarlicha ta’sir o‘tkazgan. Hattoki, Yevropada adabiyotida XIV asrda Dante Aligeri tomonidan yozilgan “Ilohiy Komediya” asarining do‘zax qismi ham “Jumjuma sulton” dostoniga syujet jihatidan o‘xshab ketadi va bu Sharq adabiyotida ham o‘z davrida bu mavzuga oid asarlar bilan aloqa borligini isbotlaydi. Bu maqola keyingi qiyosiy tadqiqotlarga ham yo‘l ochadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Абилов Ш.Ш. Хөсам Кятибнең “Жәмжәмә солтан” дастаны // Татар әдәбияты тарихы. Алты томда. -Т.-1. – Казань: Татар. кит. нәшр., 1984. – 245 б.
2. Hisam Kotib. Harezmi Türkçesiyle yazılmış Cümcüme Cultan hikoyasi. Haz. Arzu Çıftoğlu Çabuk. – Ankara: Copyright, 2021. – 308 s.
3. Р.Ф.Исламов. “Дастан-и джумджума султон” Хусам Катиба // Проблемы востоковедения. – Казан, 2014. – № 3 – Б. 65-70.
4. Нуриева Ф.Ш. Атрибуция языка письменных памятников золотоордынского периода. – Астана: Изд-во Сарыарка, 2011. – С. 77-80.
5. Fuad Köprülü. Türk edebiyatı tarihi. – İstanbul: Alfa, 2014. – 548 s.
6. Köprülü Orhan ve F. Nermin Pekin (haz.) (1981), M. Fuad Köprülü / Türk Edebiyatı Tarihi. 3. basım. İstanbul: Ötüken Neşriyat, s. 307-309.
7. Хисам Котиб. Дастаны Жәмжәмә / Текстны Ш.Абилов хәзерләде // Борынғы татар әдәбияты. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1963. – 218 б.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934